

## MAHALLIY SOLIQLARNI HISOBLASHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

**Alimuxamedova Feruza Mirabitovna**

*Toshkent temir yo'llar texnikumi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada Mahalliy byudjet daromadlari tarkibida ko'chmas mulkdan olinadigan mahalliy soliqlar asosiy daromad manbaini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, mol-mulk fuqarolik huquqlari ob'ekti sifatida ko'chmas mulkka va ko'char mulkka bo'linishi.*

**Kalit so'zlar:** *Ko'chmas mulk, Bozor qiymati, ko'chmas mulkni baholash, ko'chmas mulkni baholashning daromadlar usuli algoritmi, bozor qiymati, xarajat usuli va uning xususiyatlari.*

### KIRISH

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mintaqani rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa moddiy resurslarni takror ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida joriy etilgan.

Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab- ehtiyojlarni to'liqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari bilan belgilangan, ular tomonidan o'z vakolatiga muvofiq ravishda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ishlatiladigan soliqlar mahalliy soliqlar hisoblanadi.

Mahalliy yig'imlar - bu O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qaroriga muvofiq belgilangan, yuridik va jismoniy shaxslarga ularga ko'rsatilgan madaniy-maishiy xizmatlar yoki davlat hokimiyatining mahalliy organlari nazorati ostida o'tkaziladigan boshqa tadbirlarning chiqimlari bilan bog'liq xarajatlarni qisman qoplash uchun undiriladigan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy davlat hokimiyati idoralarining daromad manbai hisoblanib, ular hozirga qadar davlatchilik munosabatlari rivojlanishiga mutanosib ravishda shakllanib, takomillashib keldi. Agarda respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq turli sohalarda amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan islohotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy hokimiyat idoralarining mavqeini oshirish borasidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan

shunday chora-tadbirlarning aniq yo'nalishi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining daromad manbaini mustahkamlashga qaratilgandir.

Mahalliy soliqlar va yig'imglar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibidagi o'zgarishlar nafaqat son jihatdan, shuning bilan birgalikda, mohiyat jihatdan ham keng ko'lamli o'zgarishlarga erishildi. Bugungi kunga kelib ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

Respublikamiz soliq tizimidagi mavjud mahalliy soliqlar va yig'imglarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- "mahalliy soliqlar va yig'imglar mahalliy davlat hokimiyati idoralari tasarrufida bo'lgan hududlar ehtiyojlari uchun ishlatiladi;

-ularning asosiy qismi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bevosita o'zlari tomonidan joriy etiladi;

-ularni huquqiy jihatdan tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati idoralariga bir qadar vakolatlar berilgan bo'lsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishni talab etadi va boshqalar"[1].

Respublikamizda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining asosiy daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar va yig'imglar bilan bog'liq muammolar markazida ularning mahalliy budjetlar xarajatlarini to'liq miqdorda moliyalashtira olmasligidadir. Shuning uchun ham umumdavlat soliqlaridan mahalliy budjetlarga ajratmalar, ya'ni tartibga solinadigan soliqlardan to'liq yoki qisman ajratmalar belgilash tizimi amal qiladi va ulardan kelib chiqib mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi vakolatlari yana bir qadar oshirilgan bo'lsada, bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining soliqlar va yig'imglar bo'yicha vakolatlari qonunchilik nuqtai-nazaridan unchalik yuqori hisoblanmasada, amalda esa o'z hududlarida undiriladigan barcha soliqlar va yig'imglarni nazorat qilish tizimi amal qiladi.

Soliq kodeksiga muvofiq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq to'lovchilari bo'lib, soliq solish ob'ekti hisoblanuvchi mol-mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va O'zbekiston Respublikasi hududida ko'chmas mulkka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslardir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 19-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-599-sonli qonuni bilan tasdiqlangan Yangi Soliq kodeksiga muvofiq, 2020-yil 1-yanvardan yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi 2 foiz miqdorida belgilandi (1-rasm).

1-rasm. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasining o'zgarish tendentsiyasi (%) da.[2]

2.3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq stavkasi o'zgarish tendentsiyasiga ega bo'lib 2011-2013-yillarda 3,5

fozini, 2014-2015-yillarda 4,0 foiz, 2016-2018-yillarda 5,0 foiz miqdorida hisoblangan bo'lsa, 2019-yildan ko'chmas mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga nisbatan 2 foiz miqdorida belgilanib, 2018-yildagi soliq stavkasiga nisbatan 3 foizli punktga pasaytirildi.

Ta'kidlash joizki, qurilishi normativ muddatda tugallanmagan ob'ektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek tugallanmagan qurilish ob'ektlariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin hamda Soliq kodeksining 414-moddasida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari ularga tatbiq etilmaydi.

2021-yil 1-yanvardan soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,4 foiz miqdorida belgilandi:

1) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish ob'ektlari.

Soliq kodeksiga muvofiq, mulkida soliq solish ob'ekti deb tan olinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan holdagi yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq to'lovchilari deb e'tirof etiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси
2. Алимов Р.Х., Беркинов Б.Б. ва бошқалар. Кўчмас мукни баҳолаш. “Фан”. Т.: 2005 й. 240 б
3. Тэпман Л.Н. Оценка недвижимости. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003.-133 с
4. Алимов Р.Х., Беркинов Б.Б. ва бошқалар. Кўчмас мукни баҳолаш. “Фан”. Т.: 2005 й. 240 б
5. Алимов Р.Х., Беркинов Б.Б. ва бошқалар. Кўчмас мукни баҳолаш. “Фан”. Т.: 2005 й. 240 б
6. Тўйчиев Н.Ж., Мирхошимов А.М., Плахтий К.А. Кўчмас мулкни баҳолаш асослари. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Адолат, 2000, - 280 б.